

KOREYS TILI DARSLARIDA MULTIMEDIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI GRAMMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Olmosxon Niyozova Erkaboyevna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya

Universiteti koreys tili o'qituvchisi

TDFU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada koreys tili darslarida multimediya va raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning grammatik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli vositalar o'quv jarayonini interaktiv, samarali va motivatsion qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda multimedia resurslari, mobil ilovalar, onlayn platformalar va sun'iy intellekt asosidagi dasturlarning grammatik bilimlarni shakllantirishdagi roli yoritiladi.


Kalit so'zlar: koreys tili, grammatik kompetensiya, multimedia, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta'lim, CALL.

Аннотация. В данной статье анализируется вопрос развития грамматической компетенции учащихся на уроках корейского языка посредством использования мультимедийных и цифровых технологий. В современной системе образования цифровые инструменты играют важную роль в обеспечении интерактивности, эффективности и мотивации учебного процесса. В исследовании освещается роль мультимедийных ресурсов, мобильных приложений, онлайн-платформ и программ на базе искусственного интеллекта в формировании грамматических знаний.

Ключевые слова: корейский язык, грамматическая компетенция, multimedia, цифровые технологии, интерактивное обучение, CALL.

Abstract. This article analyzes the development of students' grammatical competence in Korean language classes through the utilization of multimedia and digital technologies. In the modern educational system, digital tools play a crucial role in making the learning process interactive, effective, and motivational. The study highlights the role of multimedia resources, mobile applications, online platforms, and artificial intelligence-based programs in shaping grammatical knowledge.

Keywords: Korean language, grammatical competence, multimedia, digital technologies, interactive learning, CALL (Computer-Assisted Language Learning).



Bugungi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni, xususan koreys tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Koreya Respublikasining iqtisodiy, madaniy va texnologik yuksalishi natijasida koreys tili xalqaro ta'lim makonida muhim o'rin egalladi.

Til o'qitish jarayonida grammatik kompetensiyani shakllantirish asosiy vazifalardan biridir. An'anaviy darslar ko'pincha nazariy bilimlarga tayanib qolsa, zamonaviy multimedia vositalari o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, koreys tili darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadiro

So'nggi yillarda CALL (Computer-Assisted Language Learning) tizimi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Warschauer va Healey til o'qitishda kompyuter texnologiyalari kommunikativ yondashuvni kuchaytirishini ta'kidlaydi. Chapelle (2001) multimedia vositalari til o'rganuvchilarning interaktivligini oshirishini ilmiy asoslab bergan. Richards va Rodgers zamonaviy metodikalarda texnologiyaning integratsiyasi zarurligini qayd etadi.

Koreys tili o'qitish bo'yicha tadqiqotlarda esa TOPIK imtihonlariga tayyorlov, grammatika mashqlarini avtomatlashtirish va mobil ilovalar (Duolingo, LingoDeer) samaradorligi ko'p o'rganilgan.

Grammatik kompetensiya - bu tilning grammatik qoidalarini to'g'ri tushunish va nutq jarayonida to'g'ri qo'llash qobiliyatidir. Koreys tilida esa bu quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- gap tuzilishi (SOV modeli)
- qo'shimchalar (-은/는, -이/가, -을/를)
- zamon shakllari
- hurmat darajalari (존댓말 va 반말)

An'anaviy yondashuvda bu qoidalar yodlash orqali o'rgatilsa, raqamli texnologiyalar ularni kontekstda o'zlashtirish imkonini beradi.

Multimedia vositalari (video, audio, animatsiya, interaktiv mashqlar) grammatik materialni vizual va eshitish orqali qabul qilishni osonlashtiradi.

Afzalliklari:

- grammatik qoidalarni real kontekstda ko'rsatadi
- eshitish va ko'rish xotirasini rivojlantiradi
- darsni qiziqarli qiladi
- mustaqil o'qishni rag'batlantiradi

Koreys tilida hurmat shakllari (존댓말) va norasmiy nutq (반말) tizimi grammatikaning eng muhim qismlaridan biridir. O'quvchilar bu farqni faqat qoida orqali emas, balki real

kommunikativ vaziyatlarda ko‘rish orqali yaxshiroq o‘zlashtiradi. Shu jihatdan koreys dramasi bilan olingan dialoglar grammatik kompetensiyani rivojlantirishda samarali multimedia vositasi hisoblanadi. Masalan, koreys dramasi bilan olingan dialoglar orqali o‘quvchilar hurmat shakllarini amalda ko‘rishlari mumkin. Vaziyat: ish joyida suhbat (hurmat shakli)

Xodim: -부장님, 이 서류 검토해 주시겠습니까?

-Bo‘lim boshlig‘i janoblari, ushbu hujjatni ko‘rib bera olasizmi?

Rahbar: -네, 잠시만 기다려 주세요.

- Ha, biroz kutib turing.

Ushbu dialog orqali o‘quvchilar quyidagi grammatik jihatlarni amalda ko‘radilar:

-시- hurmat qo‘shimchasi (주시겠습니까?)

-습니다 /-습니까- rasmiy va hurmat ohangi

주세요 - iltimos shakli

rasmiy vaziyatda 존댓말 ishlatilgan.

Koreys dramasi bilan real dialoglar o‘quvchilarga grammatik qoidalarni yodlashdan ko‘ra, ularni kontekstda tushunish va qo‘llash imkonini beradi. Bu esa ayniqsa hurmat shakllarini o‘zlashtirishda yuqori samaradorlikka ega multimedia yondashuv hisoblanadi.

Bugungi kunda til o‘rganish uchun ko‘plab raqamli platformalar mavjud. Xususan, Duolingo, Memrise, LingoDeer hamda Talk To Me In Korean kabi platformalar xorijiy tillarni, jumladan koreys tilini o‘rganishda keng qo‘llanilmoqda. Ushbu platformalar an’anaviy o‘qitish usullaridan farqli ravishda o‘quv jarayonini interaktiv, individuallashtirilgan va doimiy nazorat qilinadigan tizim asosida tashkil etadi.

Mazkur raqamli vositalarning eng muhim didaktik afzalliklaridan biri -grammatik materiallarning bosqichma-bosqich va tizimli tarzda taqdim etilishidir. Masalan, LingoDeer platformasi koreys tili grammatikasini strukturaviy yondashuv asosida o‘rgatadi, ya’ni har bir grammatik qoida avval qisqa nazariy izoh, so‘ngra esa amaliy mashqlar orqali mustahkamlanadi. Bu yondashuv kognitiv o‘zlashtirish jarayonini yengillashtiradi va o‘quvchining grammatik kompetensiyasini asta-sekin shakllantiradi.

Shuningdek, ushbu platformalarda qo‘llaniladigan interaktiv mashqlar -testlar, gap tuzish topshiriqlari, eshitib tushunish va to‘g‘ri javobni tanlash kabi faoliyatlar-o‘quvchini passiv bilim qabul qiluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu esa kommunikativ til o‘qitish tamoyillariga mos keladi. Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, bunday platformalar grammatika o‘qitish jarayonida quyidagi didaktik funksiyalarni bajaradi:

vizualizatsiya funksiyasi -grammatik qoidalarni grafik va misollar orqali tushuntirish
avtomatlashtirilgan mustahkamlash - takroriy mashqlar orqali bilimni mustahkamlash

adaptiv o'qitish - o'quvchi darajasiga moslashish

tezkor feedback - xatolarni darhol ko'rsatish va tuzatish imkoniyati.

Bu platformalar grammatik mashqlarni interaktiv tarzda taqdim etadi. Masalan, LingoDeer koreys tili grammatikasini bosqichma-bosqich o'rgatadi va har bir qoida uchun amaliy mashqlar beradi. Natijada, raqamli platformalardan foydalanish koreys tili o'rganuvchilarda grammatik kompetensiyani nafaqat nazariy, balki amaliy darajada ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta'lim jarayonida multimediya va raqamli texnologiyalarning didaktik samaradorligini tasdiqlaydi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar til o'rganishda keng qo'llanilmoqda. ChatGPT va boshqa AI tizimlari o'quvchilarga grammatik xatolarni tuzatish, gap tuzishda yordam berish, real dialog simulyatsiyasi imkonini yaratadi. Bu esa kommunikativ grammatik kompetensiyani rivojlantiradi.

Koreys tili darslarida multimedia va raqamli texnologiyalardan foydalanish grammatik kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Interaktiv platformalar, mobil ilovalar va AI texnologiyalari o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatini oshiradi va grammatikani amaliy kontekstda o'zlashtirishga yordam beradi. Kelajakda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. *Language Teaching*, 31(2), 57–71.
2. Chappelle, C. A. (2001). *Computer Applications in Second Language Acquisition*. Cambridge University Press.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
4. Hubbard, P. (2009). *Computer Assisted Language Learning: Critical Concepts*. Routledge.
5. Kim, H. Y. (2017). *Korean language education and digital learning tools*. Seoul National University Press.
6. Levy, M. (1997). *Computer-Assisted Language Learning*. Oxford University Press.
7. Beatty, K. (2013). *Teaching and Researching Computer-Assisted Language Learning*. Routledge.